

## MONUMENTAL (MAHOBATLI) KOMPOZITSIYA YARATISH VA UNDA FOYDALANILADIGAN RANGLAR

**Qahhorova Nilufar Sodiq qizi**  
Kamoliddin Behzod nomidagi  
rassomlik va dizayn instituti magistranti

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada kompozitsiya yaratishda qoʻllaniladigan ranglarning maʼnolari xususiyatlari, rang va tus munosabatlari, ranglarni yaxlit koʻrish va shu kabi maʼlumotlarni olishingiz mumkin.

**Kalit soʻzlar:** Rang, kolorit, kontrast, kompozitsiya, ranglar gammasi, natura, ritm, simmetriya, assimetriya, dinamika, statika.

Inson koʻzi bilan nimani koʻrsa, shuni rangda va yorugʻlik yordamida koʻradi. Uning uchun rang ahamiyati juda muhim omillardan sanaladi. Rang inson ruhiyatiga ham katta taʼsir etuvchi vositalardan biridir. Ranglarning tabiatda qanday hosil boʻlishi va tarqalishi muammosi qadimdan olim va rassomlarning diqqatini tortgan. Mashhur olimlar Nuton, Lomonosov, Gelmgolslar ranglarning mohiyatini ilmiy asosda tekshirganlar. M. V. Lomonosov fanda birinchi boʻling asosiy ranglarni kashf etgan. Isak Nyuton qator tajribalar oʻtkasib, shaffof yorugʻlikni aslida koʻp ranglardan iborat ikanligini isbotlagan. Ektranda spektr ranglar hosil qilgan.<sup>1</sup> «Umumiy rang - deb yozadi Gyotye, —odamlarda katta quvonch uygʻotadi»<sup>2</sup>. Goʻzallik inson psixologiyasida rang bilan bogʻliq holda aks etadi. Buni amaliy sanʼat va tasviriy sanʼatning barcha turlarida koʻrish mumkin. Hatto xalq bayramlarida foydalaniladigan rang-barang tomoshabop sahna koʻrinishlarda, bayram liboslarida, dekoratsiyalarda ham turli issiq va yorqin ranglardan foydalaniladi. Bunda yorqin ranglar xalqning shod-xurramlik, xursandchilik kayfiyatini namoyish etadi. Aksincha, sovuq ranglar esa inson hayotining qaygʻuli damlar ruhiyatini aks ettirish uchu xizmat qiladi. Shunig uchun liboslar, sahna bezaklari va tasviriy sanʼatda shu kayfiyatni berish uchun oq, qora, koʻk kabi ranglar asosiy oʻrinni egallaydi. Shunigdek, bu ranglar insonlar psixologiyasida ham tushkunlik kayfiyatini aks ettiradi. Shu boisdan motam liboslarida sovuq va toʻq ranglarli matolardan motam liboslari tayyorlanadi.

<sup>1</sup>Абдирасилов С, Толипов Н, Орипов Н. Рангтасвир. – Тошкент. Ўзбекистон, 2006. – Б.15.

<sup>2</sup>Хувайберганов Р. Тасвирий санъатда ранг. –Тошкент. 2004. – Б. 4.

Monumental rangtasvir atamasi monumental (mahobatli), ya'ni katta o'lchovli rangtasvir ma'nosini anglatadi va bu turdagi asarlar ko'pincha binolarning ichki va tashqi devorlariga ishlanadi. Monumental rangtasvir asarlarining freska, mozaika, vitraj, rospis, sigrafito kabi turlari mavjud.<sup>1</sup> Ushbu maqolada monumental kompozitsiyada issiq va sovuq, yorqin va to'q ranglardan foydalanishdagi alohida e'tibor berishiladigan jihatlar xususida fikr yuritiladi. Ushbu maqolani yozishdan asosiy maqsad ham monumental kompozitsiyada ranglar munosabatini aniqroq yetqazib berishdir. Ranglar garmoniyasi, kolorit, kontrastlar, mavhumiy ranglarning go'zal birikishi haqiqatan ham tabiatda yaqqol namoyon bo'ladi va u holatni boshqa kasb egalariga nisbatan rassomlar chuqurroq va yorqinroq idrok qila oladi. Rassom o'z ijodida bu ko'rinishlarni umumlashtiradi, qayta-qayta izlanadi yoki o'zgacha qarashlar bilan qabul qiladi va san'at asari yaratadi. Tabiat esa (yoki natura) rassomlar uchun asosiy rang his qilish, ilhomlanish manbai hisoblanadi.

Rassom asar yaratar ekan, ranglarni o'z didiga, uslubiga, maqsadiga bo'ysundirgunga qadar izlanadi. Uning tagida albatta rang tushunchasi, rang nazariyasi va rangshunoslik qonunlari yotadi. Mukammal rang nazariyasiga va amaliyotiga ega bo'lgan rassom ranglar orqali badiiy obraz, san'at asarlari yaratishga erishadi. Buning uchun esa rassomdan o'z ustida tinmay ishlash, izlanish va mehnat qilish talab etiladi.

Kompozitsiyada rang katta o'rinda turadi. Rassom qanday asar yaratmasin, birinchi navbatda rangga e'tibor berishi, izlanishi, rangdan o'z o'rnida to'g'ri foydalana olishi uning ishida muvaffaqiyat keltirishi mumkin.

Rang- nafis tasviriy san'atning yuragidir. Badiiy asarning hissiy, ma'naviy, emotsional tasvirini oshirishda rangning roli nihoyatda kattadir. Grafikada oq va qora ranglar bilan ham kompozitsiya yaratish mumkin, lekin bu cheklangan axromatik ranglardan to'g'ri foydalanish uchun ham rassom xromatik ranglardan mukammal foydalana bilishi lozim.

Mahobatli (monumyental) san'atda kompozitsiya arxityektura va haykaltaroshlik bilan bog'liq holda yaratiladi. Uning mavzusi va mazmuni badiiy fikrning ulug'vorligini belgilaydi, unda o'tkinchi mavzu emas, balki xalk hayotidagi muhim voqealar tasvirlanadi. Kompozitsiyaga mavzu tanlanayotganda chiziladigan asar qanday binoning devori ekanligi alohida ahamiyatga ega. Mahobatli (monumental) nafis tasviriy san'atda kompozitsiyaning aniqligi, puxtaligi, koloritining umumlashmaligi, interyer uchun bosiq ranglardan foydalanganligi, asarning har tomondan ko'rishga qulayligi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Bunga Rafayelning «Afina maktabi» (Vatikan) devoriy rasmi, Ch.Axmarovning Alishyer Navoiy

<sup>1</sup>Хасанов Р. Тасвирий санъат асослари. – Тошкент. Ғофур Ғулом номидаги нашриёт матъбаа-ижодий уйи, 2009. –Б. 45.

nomidagi Opera va balet teatri foyesiga «Xamsa» mavzusidagi devoriy rasmlari misol bo'la oladi.

Mahobatli rangtasvir nafis san'atining asosiy vazifasi xonalarni (pannolarni) bezashdir. Ularni alohida pannolarda ishlab, keyin bino intyeryerlariga o'rnatish ham mumkin. Devorga ishlanadigan nafis tasviriy naqshning mavzusi va syujet xarakteri rassomning dunyoqarashi va binoning qanday maqsadda foydalanishiga bog'liq. Har xil ko'rinishdagi vaziyatda kontrast ranglar paydo bo'lganligini ko'ramiz. Ranglar munosabatlari (nisbati), umumiy tusi va ranglar holati to'g'ri topilgan san'at asarini yaxshi rangtasvir deyish mumkin bo'ladi.

Kompozitsiya tasviriy san'atda eng murakkab tushuncha bo'lib, u har qanday yo'nalishdagi rassomdan o'z ichki kechinmalarini tasvirlashni talab etadi. Kompozitsiya – ijodning asosidir. U rassomning darajasini, asarning sifatini, tomashabinga ta'sir qila olish kuchini aniqlaydi. Tasviriy san'atda kompozitsiya bilan boy fikr va kartina syujeti chambarchas bog'liq. Rassom tomashabinga o'z g'oyasini, fikrini badiiy obrazlarda yetkazib berishda kompozitsiya vositasidan foydalanadi. San'at chegarasiz bo'lganidek, kompozitsiya masalalari ham murakkab va ko'p qirralidir. Rangtasvirda kompozitsiya tushunchasini so'z bilan ifodalash qiyin, u obrazlar, shakllar va albatta ranglar orqali yetqazib beriladi. Kompozitsiyani yaxshi yoki yomon ekanligini tomoshabin o'z bilimidan, tushunchasidan kelib chiqib baholaydi va albatta rassomning saviyasini ham kompozitsiyaning yechimi ko'rsatib beradi. Bunda rassomning ranglar uyg'unini qay darajada topa olganligi muhim ahamiyatga ega.

Shuning uchun kompozitsiya yaratishda eng murakkab vazifalardan biri – bu kartinada ranglar garmoniyasidir. Shakllarda kontur chizig'i siluetdan tashqari, uning ochiq maydoni, obrazlar qiyofasi rang bilan to'ldiriladi. Bu ranglar qanchalik yorqin bo'lsa, u ko'zimizga shunchalik kuchli ta'sir qiladi va kompozitsiya yechimida katta rol o'ynaydi. Shunga qarab mahobatli kompozitsiyada asarning interyer yoki eksteryerda joylashishiga, uzoq yoki yaqin masofadan qaralishiga, yoruqlikning asar yuzagiga qanday tushishiga ham alohida ahamiyat beriladi. Kompozitsiya rangi uning garmoniyasiga asoslanib, umumiy rang tusiga moslashtiriladi. Xilma-xillik, rang tuslarining boyligi, kontrastlar bellashuvi, shakllar qurilmasi asarning umumiy tuzilishini aniqlaydi.

Kompozitsiyada voqelikni kartinada tabiiy rang koloritida aks ettirilmasa, asar mazmuni to'la ochib berilmaydi, unda hayotiylik bo'lmaydi. Kartinada tusni yoki rang kuchini ozgina o'zgartirilishi kartina ruhini va mazmunini o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Kartinada rang tuzilishida tabiiy yaxlitlikni oz bo'lsa-da, o'zgarishi rangtasvir asarini bushliq planlarini notabiylikka olib keladi.

Rangtasvir san'atida koloritdan qanday foydalanishi rassomning tabiatdagi bor ranglar boyligini bilish, o'rganib borish natijasidir. Rassom hamma muhitda ham ranglar garmoniyasini va «xunuk» va «qarama-qarshi» ranglar tonini bilishi, ularni bir-biri bilan bog'lay olishi kerak. Oddiy rassom bo'lmagan inson kartinaga qaraganida undagi ranglar qarashga halaqit bermagan holda yaxlit ko'rinishi lozim. Rassom rang va yoruglik yordamida tomoshabinni idrok qilishini tashkillashtiradi, uning diqqatini kompozitsiyadagi bosh voqea va mazmunga yo'naltiradi.

Kompozitsiya markaziga urg'u berishda asosan ton va rangga asoslanadi, fonga nisbatan shakllar va ranglar kontrast hosil qilib tomoshabinga yetkazadi. Bundan maqsad kompozitsiyaning asl ma'nosini markazdan boshlab idroq qilish, tomoshabinning e'tiborini uning markaziga qaratishdir. Ikkinchi darajada esa asarning qolgan qismlariga ritm, dinamika, statika, simmertiya, assimetriya va shu kabi kompozitsiya yaratishning har xil elementlaridan foydalangan holda u boyitib boriladi. Bo'lajak devoriy rasmni binoga joylashda, uning o'rnini aniqlashda me'mor (arxitektor) yordami muximdir, – deb yozadi R.Xudayberganov o'z asarida<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytganda, ranglardan to'g'ri foydalanish va ularning o'zaro uygunligini topish mahobatli (monumental) rangtasvir yo'nalishida o'qiyotgan har bir talaba yoshlar uchun kompozitsiya yaratishda e'tibor berish lozim bo'lgan muhim jihat sanaladi. Bu jihatni o'rganish va amalda qo'llash uchun zarur bo'lgan qoida va yo'riqlar mavjud. Kompozitsiya yaratishda ulardan to'g'ri foydalanish va ko'rsatmalarga amal qilish orqali ranglar uygunligiga erishish va yaxshi asarlar yaratish mumkin.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Xudayberganov. R Kompozitsiya. T.-2004y.
2. Xudayberganov. R Tasviriy san'atda rang. T.-2004y.
3. Hasanov. R Tasviriy san'at asoslari. G'ofur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi. T.-2009y.
4. Abdirasilov. S, Tolipov. N, Oripov. N. Rangtasvir. Toshkent – “O'zbekiston” – 2006y.
5. Online.uz

---

<sup>1</sup>Xudayberganov R. Композиция. – Тошкент. 2004. – Б-6.